



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN  
VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI  
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**"ADABIY TA'LIM METODOLOGIYASI:  
XALQARO TAJRIBA VA ILMIY HAMKORLIK"**  
mavzusidagi professor Hamidulla Boltaboyev  
tavalludining 70 yilligiga bag'ishlangan  
xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

**MATERIALLARI**

**2-kitob**

**Toshkent  
2024-yil 30-sentabr**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN  
VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**  
**MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**  
**Michigan davlat universiteti (AQSH)**  
**Anqara Boshkent universiteti Alisher Navoiy tadqiqot markazi (Turkiya)**  
**Al-Farobiy nomidagi Qozoq milliy universiteti**  
**Ozarbayjon Milliy ilmlar akademiyasi Nizomiy nomidagi Adabiyot instituti**  
**O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi**  
**Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi**

**"ADABIY TA'LIM METODOLOGIYASI: XALQARO  
TAJRIBA VA ILMIY HAMKORLIK"**  
mavzusidagi Professor Hamidulla Boltaboyev  
tavalludining 70 yilligiga bag'ishlangan  
xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

**MATERIALLARI**

**2-kitob**

**Toshkent  
"MUMTOZ SO'Z"  
2024**

UO'K: 631.542.12

KBK 83.3(0)3

“Adabiy ta’lim metodologiyasi: xakqaro tajriba va ilmiy hamkorlik” mavzusidagi Professor Hamidulla Boltaboyev tavalludining 70 yilligiga bag‘ishlangan xalqaro ilmiy-nazariy anjuman Materiallari. – Toshkent: MASHHUR PRESS, 2024. – 578 b.

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida o‘tkazilgan “Adabiy ta’lim metodologiyasi: xalqaro tajriba va ilmiy hamkorlik” mavzusidagi ushbu xalqaro ilmiy-nazariy anjuman Materiallari olti bo‘limdan iborat bo‘lib, uning har bir bo‘limida zamonaviy filologik tizimda adabiy ta’limning eng dolzarb muammolari qamrab olingan. 200 dan ortiq maqolalarni o‘z tarkibiga olgan mazkur to‘plam professor-o‘qituvchilar, mutaxassis va tadqiqotchilar, doktorant va izlanuvchilarga mo‘ljallangan.

**Mas’ul muharrirar:**

I.G‘afurov – O‘zbekiston Qahramoni, San’at arbobi,  
Y.Ergashev – O‘ZMU prorektori, professor

**Tahrir hay’ati:**

N.Hasanov, J.Jo‘rayev, Q.Husanboyeva, M.Umarova, G.Keldiyorova, D.Xatamova,  
D.Qozoqboyeva, O.Hamroyeva, B.Turayeva, T.Matyoqubova

**To‘plib, nashrga tayyorlovchilar:**

D.Qozoqboyeva, H.Boltaboyeva

**Taqrizchilar:**

X.Do‘stmuhamedov – filologiya fanlari doktori, professor;  
Almaz Ulvi Binnetova – filologiya fanlari doktori, professor

Mazkur Materiallar O‘zMU Ilmiy texnikaviy kengashining 2024-yil  
27-sentabrdagi majlisida nashrga tavsiya etilgan (09-sonli bayonnomma)

ISBN 978-9910-674-30-3

© O‘zbekiston Milliy universiteti, 2024

© “MASHHUR PRESS”, 2024

diriliş, bir uyanış hareketi olarak siyasi, iktisadi, içtimai ve kültürel alanlara yönelik fikirlerin ve faaliyetlerin mecmasıdır [Tekcan, 2012: 169].

İnsanlık tarihi siyasi, iktisadi, içtimai, kültürel mücadelelere, harplere, işgallere, istilalara ve nice felaketlere şahit olmuştur. Cedit Hareketi yeni nesillere uyanık olmayı, yenileşmeyi, iyileşmeyi, dinine, milliyetine, vatanına, halkına, kadriyattına sahip çıkmayı, dünyayı takip etmeyi, ilme, irfana, teknike, eğitime, ahlaka önem vermeyi, iyilik yapmayı, yeniliğe (tecdite) açık olmayı hatırlatmaktadır. Ceditçiler, memleketin istikbali için maddi ve manevi fedakarlık yapmak gerektiğini servetlerini harcayarak, hayatlarını feda ederek göstermişlerdir. Ceditçilerin hazır serencamı, şehadetleri, gayeleri uğruna verdikleri canları, yapılan çalışmaların, atılan tohumların zayı olmadığını görülmektedir. Onların fikirlerinin büyütürek, gelişerek devletleri, cemiyetleri, nesilleri kuşattığı ibretle ve hikmetle devam etmektedir.

### Kaynakça

1. Alpargu M., 2002. Türkistan Hanlıkları, Türkler, C. 8. Ankara: Yeni Türkiye Yay.
2. Avcı Y., 2006. Özbekistan'da Fitrat'in Ceditçiliği, Eğitirciliği Ve Eğitim Felsefesi. Türk Dünyası Dil Ve Edebiyat Dergisi(21), 39-51.
3. Erşahin S., 1999. "Buhara'da Cedidcilik-Eğitim İslahatı Tartışmaları Ve Abdurrauf Fitrat (XX. Yüzyıl Başları)". Dini Araştırmalar 1/3.
4. Erşahin S., 2021. Türkistan'ın Millî Uyanışında Özbek Cedidciler Abdurrauf Fitrat Örneği. İstanbul: Mamer Yayımları,
5. Zakhitbek I., 2023. Türkistan Ceditçilerinin Dinî Düşüncesi Uludağ Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Basılmamış Doktora Tezi Bursa
6. Kasimov B., 2009. Milli Uyanış. Ankara: Atatürk Kültür Merkezi.
7. Tekcan M., 2012. Türkistan - Özbek Ceditçiliği. Düşünce Dünyasında Türkiz Siyaset Ve Kültür Dergisi Yıl:3, Sayı: 17, Eylül - Ekim
8. Türk Dünyası Edebiyat Tarihi., 2003. C. III. Ankara: Atatürk Kültür Merkezi.

## **MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING SIYOSIY-HUQUQIY QARASHLARIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR ("TURKISTON MADANIY MUXTORIYATI LOYIHASI" MISOLIDA)**

Rustam SHARIPOV Xusnitdinovich  
filologiya fanlari nomzodi, dotsent,  
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

### **Annotation**

*Ushbu maqola jadid adabiyotining yorqin namoyandası Mahmudxo‘ja Behbudiy tomonidan badiiy ijod bilan bir qatorda tayyorlangan milliy va mustaqil davlat boshqaruvi islohotiga oid huquqiy hujjatlar tahliliga bag‘ishlangan. Darhaqiqat, Behbudiy o‘z xalqining kelajagini faqat ma’rifat masalalari bilangina bog‘lab qo‘ymagan holda millatning kelajagi qanday kechishi lozimligi masalasi bilan ham qiziqib, boshqa davlatlarning siyosiy tuzumini o‘rgangan va qaysi davlat tuzumidan andoza olish mumkinligi borasida ham fikr yuritgan. Behbudiyning 1906-yilda nashr etilgan “Kitobi muntahabi jug‘rofiyai umumiy” (“Umumiy jug‘rofiyadan saylanma kitob”) degan asari alohida o‘rin tutadi. U asarning muqaddima fasllaridan biri “jug‘rofiya” fanining ahamiyati va bu fanning “tarixiy jug‘rofiya”, “siyosiy jug‘rofiya” va “umroniy (umumiy) jug‘rofiya” degan qismlardan tashkil topishi haqidagi fikrlarini bayon qilgach, kishilik jamiyati*

*tarixi va uning muhim nuqtalariga to'xtalib o'tadi. Asarning "Hukumat va hukmronlar" deb nomlangan fasliga kelib, bevosita davlat qurilishi masalalariga oid fikrlarini o'rtaga tashlaydi. Behbudiy "Hurshid" gazetasining 1906-yil 6-sonida e'lon qilingan "Xayrul umuri avsatuh" nomli maqolasida Rossiyada siyosiy faoliyat yurgizayotgan partiyalar va ularning siyosiy dasturlarini ham tahlil qilishga harakat qiladi. Behbudiyning bu maqolasi xalq ommasi siyosiy savodini chiqarish maqsadida yozilgan bo'lib, uning o'z oldiga qo'ygan vazifalaridan biri, xalqni siyosiy jihatdan savodli qilish va sekin-asta uni siyosiy kurash maydoniga olib chiqish bo'lgan.*

*Behbudiy ushbu yo'nalishdagi faoliyatini davom ettirib, 1907-yilda Rossiya 3-Davlat Dumasi yig'ilishida ko'rib chiqish uchun "Turkiston madaniy muxtoriyati loyihasi"ni tayyorlagan va uni Davlat Dumasining Musulmon fraksiyasiga topshirgan. Mazkur "Loyiha" Turkiston masalalari bo'yicha taniqli mutaxassis Ismoilbek Gaspraliga tanishib chinish uchun berilgan. Behbudiy 2-Davlat Dumasining Musulmon fraksiyasiga ham bir necha ma'ruzalar yozib bergen va ularda Turkiston muxtoriyati bilan bog'liq bo'lgan muhim masalalarni ko'targan. Bizningcha, zikr etilayotgan "Loyiha"da Behbudiyning o'sha ma'ruzalarda ilgari surgan ayrim fikr va mulohazalari ham muayyan huquqiy normalar sifatida o'zining yangicha talqinini topgan.*

**Kalit so'zlar:** *jadid adabiyoti, jadid ma'rifatparvarlari, Mahmudxo'ja Behbudiyning siyosiy-huquqiy qarashlari, milliy-ozodlik harakati.*

### **SOME COMMENTS ON THE POLITICAL AND LEGAL VIEWS OF MAKHMUDHODZHI BEKBUDI (BASED ON THE EXAMPLE OF THE "TURKESTAN CULTURAL AUTONOMY PROJECT")**

#### **Annotation**

*This article is devoted to the analysis of legal documents related to the reform of national and independent state administration prepared by Makhmudkhoja Bekhbudi, a bright representative of modern literature. In fact, Bekhbudi was interested in the issue of how the future of his people should be, not only connecting the future of his people with the issues of enlightenment, he studied the political system of other countries and thought about which state system can be modeled. Bekhbudi's 1906 book "Kitobi munthabi jugrofiyai yummy" ("Selected book from general geography") holds a special place. In one of the introductory chapters of the work, after describing his thoughts on the importance of the science of "geography" and the composition of this science from "historical geography", "political geography" and "Umranic (general) geography", he touches on the history of human society and its important points. Coming to the chapter of the work called "Government and Rulers", he directly expresses his thoughts on the issues of state building. Bekhbudi tries to analyze the political parties and their programs in Russia in the article entitled "Khairul umuri avsatuh" published in the 6th issue of "Khurshid" newspaper in 1906. This article of Bekhbudi was written in order to bring out the political literacy of the people, and one of his tasks was to make the people politically literate and gradually bring them to the field of political struggle.*

*Bekhbudi continued his work in this direction and in 1907 he prepared the "Project of Cultural Autonomy of Turkestan" for consideration at the meeting of the 3rd State Duma of Russia and submitted it to the Muslim faction of the State Duma. This "Project" was given to Ismoilbek Gasprali, a well-known expert on Turkestan issues. Bekhbudi wrote several reports to the Muslim faction of the 2nd State Duma and raised important issues related to the autonomy of Turkestan in them. In our opinion, in the aforementioned "Project", some of the opinions and considerations put forward by Bekhbudi in those lectures have found their new interpretation as specific legal norms.*

**Key words:** *Jadid literature, Jadid enlighteners, political and legal views of Mahmudhoja Behbudi, national liberation movement.*

## **НЕКОТОРЫЕ ЗАМЕЧАНИЯ О ПОЛИТИКО-ПРАВОВЫХ ВОЗРЕНИЯХ МАХМУДХОДЖИ БЕХБУДИ (НА ПРИМЕРЕ «ПРОЕКТА ТУРКЕСТАНСКОЙ КУЛЬТУРНОЙ АВТОНОМИИ»)**

### **Аннотация**

Данная статья посвящена анализу правовых документов, связанных с реформой национального и независимого государственного управления, подготовленных одним из ярких представителей джадидской литературы Махмудходжей Бехбуди. В своём творчестве Бехбуди поднимал вопросы связанные с будущим своего народа не только в плане просветительской деятельности, но и в плане государственного устройства. Его политико-правовые взгляды были направлены на изучение политических систем развитых стран мира и вопросы имплементации наиболее приемлемых сторон законотворчества в национальную систему государственного устройства страны. Особое место занимает его произведение, изданное в 1906 году «Китоби мунтаҳаби жузграфияи умумий» («Избранное из общей географии»). В одной из вводных глав работы, изложив свои мысли о значении «география» как науки, а также её составляющих, таких как, «историческая география», «политическая география» и «Общая география», он затрагивает значительные вопросы истории человеческого общества. В главе «Правительство и правители», он прямо выражает свои мысли по вопросам государственного строительства. Также, в своей статье «Хайрул умури авсатухо», опубликованной в б-м номере газеты «Хуршид» за 1906 год Бехбуди подробно останавливается и анализирует программы политических партий в России. Эта статья Бехбуди была написана с целью выявить политическую грамотность народа, и одной из его задач было сделать народ политически грамотным и постепенно вывести его на поле политической борьбы.

В 1907 году Бехбуди подготовил для рассмотрения на заседании III Государственной думы России «Проект культурной автономии Туркестана» и внес его на рассмотрение Мусульманской фракции думы. В дальнейшем этот «Проект» был передан для ознакомления известному в то время специалисту по вопросам Туркестана Исмоилу Гаспринскому. Вместе с тем, Бехбуди написал несколько докладов мусульманской фракции Государственной думы, в которых также затрагивали важные вопросы, связанные с автономией Туркестана. По нашему мнению, в вышеупомянутом «Проекте» были обобщены идеи, изложенные в данных докладах и нашли свою новую интерпретацию в виде проектов конкретных правовых норм.

**Ключевые слова:** джадидская литература, джадидские просветители, политико-правовые взгляды Махмудходжи Бехбуди, национально-освободительное движение.

Bundan yil muqaddam, to‘g‘rirog‘i XX asrning boshlarida Turkiston jadidlari faqat badiiy ijod, ilmiy faoliyat, maktab va maorif islohoti masalalari bilangina emas, ayni paytda davlat qurilishiga oid siyosiy-huquqiy masalalar bilan ham shug‘ullandilar. Buni o‘scha davrdagi tarixiy sharoit, xususan Turkiston aholisining hatto ilg‘or qismida ham huquqiy bilimning yo‘qligi yoki yetishmasligi taqozo etdi. Shu davrda maktab yoki biror uyushma (tashkilot) ochmoqchi bo‘lgan kishilar hatto buning uchun kimdan ruxsat olish va kimning nomiga ariza yozish masalasida ham qiynalib, murakkab vaziyatga tushib qolgan edilar. Maktab, yoki uyushma, yoxud jamiyat ochgan

kishilar esa bu maktab, yoki uyushma, yoxud jamiyatning keyingi faoliyatini tashkil etishda ojiz edilar. Vaziyatning ana shunday tus olganini ko‘rgan Munavvar qori Abdurashidxonov 1914-yili “Sadoi Turkiston” gazetasining 14-iyun sonida “Jamiyatlar qanday ochilur” degan maqola bilan chiqishga majbur bo‘ldi.

Munavvar qori mazkur maqolasida, masalan, maktab yo jamiyatni ochish uchun ishni nimadan boshlash, maktab yo jamiyatning nizomini qanday tuzish va kimning nomiga ariza yozish hamda bu bilangina kifoyalanmay, tegishli idoralarga bir emas, bir necha marotalab qatnash lozimligini aytgan.

Tarixiy davrning o‘zgarishi bilan kishilarda ibridoiy huquqiy bilimning yo‘qligi, ayniqsa, yaqqol sezildi va shunday bilimga xalq ommasida katta ehtiyoj paydo bo‘ldi. Ana shunday sharoitda jadidlar xalqqa ibridoiy huquqiy ma’lumotlar berish bilan birga jamiyatning huquqiy normalarini ishlab chiqishga ham alohida e’tibor berdilar.

XX asr boshlarida Turkiston xalqlarining milliy manfaatlarini chor hukumati oldida himoya etish uchun kamida Rossiya Davlat Dumasining yoki Toshkent shahri aholisining ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etish yoki ko‘tarish uchun esa kamida Toshkent shahar Dumasining a’zosi bo‘lish lozim edi. Chor hokimiysi yillarda markaziy va mahalliy Davlat Dumalariga a’zo bo‘lgan yerli xalq vakillarining hammasini ham o‘zlarining el-yurt oldidagi burchlarini bajargan, deb bo‘lmaydi. Lekin ular orasida Mahmudxo‘ja Behbudiy singari xalq va mamlakat dardi bilan yashagan siymolar bor ediki, ular Davlat Dumasining a’zosi sifatida samarali faoliyat olib bordilar.

2001-yili Haarlem (Gollandiya)da nashr etilgan “Turkistonda yangilik harakatlari va ixtilollar. 1900-1924” degan to‘plamdan ma’lum bo‘lishicha, Mahmudxo‘ja Behbudiy 1907-yilda Rossiya 3-Davlat Dumasi yig‘ilishida ko‘rib chiqish uchun “Turkiston madaniy muxtoriyati loyihasi”ni tayyorlagan va bu “Loyiha”ni Davlat Dumasining Musulmon fraksiyasiga topshirgan ekan. Buxoro Xalq Sovet Respublikasining sobiq Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi raisi Usmon Xo‘jaev [Usmon Xo‘ja, 1878-1968] xotirasiga bag‘ishlangan ushbu to‘plam uning farzandi doktor Temur Xo‘jao‘g‘li tomonidan nashrga tayyorlangan [Reforem Movements and Revolutions in Turkistan. 1900-1924. Studies in Honour of Osman Khoja. - Haarlem, Netherlands, 2001].

Mazkur “Loyiha” Mahmudxo‘ja Behbudiyning Rossiya Davlat Dumasiga taklifi sifatida yozilgani uchun Dumaning Musulmon fraksiyasi uni shu sohaga yaqin kishilarga fikr olish uchun bergen va u shunday yo‘l bilan Turkiston masalalari bo‘yicha taniqli mutaxassis Ismoilbek Gasparalining qo‘liga tushgan. I.Gasparalining qizi Shafiqaxonim otasining arxivini Turkiyaga olib borib, Anqaradagi doktor Najip Hablemito‘g‘liga topshirgan. Doktor Najipbek XXI asr arafasida I.Gasparali arxividan Behbudiyning “Loyiha”sini topib, uni Temur Xo‘jao‘g‘liga bergen. Shu tarzda “Loyiha” Temurxo‘janing tashabbusi va mehnati bilan dastlib Gollandiyada chop etilgan to‘plamda, keyin prof. Begali Qosimov vositasida O‘zbekistonda “Jahon adabiyoti” jurnalining 2003-yil 8-sonida e’lon qilingan.

“Loyiha”ga yozilgan kirish so‘zidan ma’lum bo‘lishicha, Behbudiy 2-Davlat Dumasining Musulmon fraksiyasiga ham bir necha ma’ruzalar yozib bergen va ularda Turkiston muxtoriyati bilan bog‘liq muhim masalalarni ko‘targan. Bizningcha, zikr etilayotgan “Loyiha”da Behbudiyning o‘sha ma’ruzalarda ilgari surgan ayrim fikr va mulohazalari ham muayyan huquqiy normalar sifatida o‘zining yangicha talqinini topgan bo‘lishi mumkin.

Loyiha to‘qqiz bo‘limdan iborat bo‘lib, ular quyidagilardir:

1. Duma xususinda.
2. Rusiya musulmonlari raisi.
3. Turkiston Idorai ruhoniya va doxiliyasi asosining musavaddasi (qoralamasи) Turkiston Idorai ruhoniya va doxiliyasi xususinda.

4. Idorai ruhoniya va doxiliya asoslarining xatti-harakati.
5. Idorai ruhoniya va doxiliya tasarrufindagi ishlar.
6. Idorai ruhoniya va doxiliya mas'uliyati.
7. Turkiston qozilari xususinda.
8. Joniy va badkorlar (jinoymatchi va bezorilar).
9. Turkiston yahudiylari va ajnabiylari.

“Loyiha”ning bu qismlari va ulardagi ayrim moddalarini sharhshidan avval shuni aytish joizki, Behbudiy 18 yoshidan boshlab qozixonada mirzalik qilgan. U shu lavozimda ishslash jarayonida o‘zining katta iste’dodini, ruhoniya va doxiliya sohasidagi boy bilimini namoyish etib, qozi va mufti darajiga erishgan. Ammo, 1899-1900-yillarda haj safari munosabati bilan Arabiston, Misr va Turkiyada bo‘lishi hamda bu mamlakatlardagi maktab va madrasa ta’limi bilan tanishish uning hayotini mutlaqo o‘zgartirib yubordi. 1903-yildan boshlab Behbudiyning diqqat markazida faqat bir masala – yangi tipdagagi maktab masalasi turdi va shu maktab yordamida Turkiston aholisini chirmab tashlagan bid’at va jaholatga qarshi kurashish va xalq ommasi o‘rtasida ma’rifat ziyyolarini tarqatishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi. Turkistonning ilg‘or kishilari safidan o‘rin egallagan Behbudiylar 1906-yili Nijniy Novgorodga borib, Rossiya musulmonlarining turmush va madaniyati muammolariga bag‘ishlangan qurultoyda ishtirok etdi. Uning mazkur qurultoyda Turkiston musulmonlari guruhiga rahbarlik qilishi va katta nutq so‘zlashi yig‘ilganlarda yaxshi taassurot qoldiradi. U Rossiya Davlat Dumasi Musulmonlar fraksiyasi a’zolari o‘rtasida obro‘-e’tibor qozonib, Turkiston muammolarini ular yordamida Davlat Dumasiga havola etmoqchi bo‘ladi.

Behbudiyning 3-Davlat Dumasi Musulmonlar fraksiyasiga yo‘llagan “Loyiha”sining Turkiston madaniy muxtoriyatiga bag‘ishlangani bejiz emas. Prof. B.Qosimovning "Jahon ababiyoti" jurnalining zikr etilgan sonida bositgan kirish so‘zida yozishicha, 1- va 2-Davlat Dumalarida qizg‘in muhokama etilgan masalalardan biri ham muxtoriyat masalasi edi. Ammo *muxtoriyat* tushunchasi o‘sha vaqtida hali siyosiy-ijtimoiy va madaniy mustaqillik ma’nosini anglatmagan. Binobarin, Rossiya musulmonlari *madaniy muxtoriyat* tushunchasi ostida millat milliy-madaniy turmushining daxlsizligini nazarda tutganlar. Bu o‘sha davr uchun, shubhasiz, jasoratli harakat hisoblangan.

Endi bevosita “Loyiha”ning birinchi bo‘limiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, unda asosan Turkiston aholisidan Davlat Dumasiga vakil saylanishining huquqiy normalari haqida bahs boradi. Behbudiylar bu masalada Turkistondagi musulmon aholisining sonidan kelib chiqqan holda vakil saylanishini lozim, deb biladi. Bu moddaga eslatma sifatida aytish lozimki, o‘sha vaqtida Turkistonda o‘rnashib olgan rus aholisining soni (322 ming), mahalliy xalq nufuzi (5 million 378 ming) dan qariyb yigirma marta kam bo‘lgan.

“Loyiha”dagi "Rusiya musulmonlari raisi" deb nomlangan ikkinchi bo‘limning ma’no-mohiyati quyidagi masalaga qaratilgan. Behbudiyning fikricha, Umumrossiya musulmonlarining diniy va hayotiy ishlarini bajarish hamda barcha ruhoniya va doxiliya idoralariga rahbarlik qilish uchun Peterburgda, ya’ni Rossianing poytaxtida mahkamai islomiya tashkil etilishi, ham diniy bilim, ham zamonaviy voqealardan yaxshi xabardor musulmonlardan birining bu mahkamaga ma’lum bir muddatga rais etib saylanishi lozim.

Turkiston idorai ruhoniya va doxiliyasi masalalariga bag‘ishlangan uchinchi bo‘lim "Loyiha"-ning eng katta bo‘limi bo‘lib, o‘n moddadan iborat. Bu moddalarning asosiy mazmuni quyidagi masalalarni o‘z qamroviga olgan:

1. Sirdaryo, Farg‘ona, Samarqand, Yettisuv, Zakaspiysk viloyatlaridan iborat Turkiston uchun bir idorai ruhoniya va doxiliya (Diniy va ichki ishlar idorasi)ni tashkil etish va bu idorani Toshkent

shahrida barpo etib, unga "birinchi darajali ulamo sinfidan shariat va zamondan xabardor kishi"ni saylov yo'li bilan besh yillik muddatga shayxul-islom etib tayinlash.

2. Mazkur idorani quyidagi tartibda tashkil etish: 1 rais – shayxul islom, 5 diniy alloma – a'lam, 5 oliv va o'rta ma'lumotli musulmon – chilon (a'zo), shuningdek, mirzo va sarkotib.

3. A'lam va chilon (a'zo)larni har bir viloyatdan besh yillik muddatga saylov yo'li bilan tayinlash.

4. Idorai ruhoniya va doxiliya tarkibiga, yuqorida qayd etilgan a'lam va chilon (a'zo)lardan tashqari, barcha mahalliy yahudiylardan bir nafar yahudiy olimni saylov yo'li bilan jalg etish.

5. Turkistonning har bir viloyatida Idorai ruhoniya va doxiliya sho'balarini ochish va bu sho'balarga viloyat shaharlarining musulmonlar yashaydigan qismidan joy berish.

6. Idorai ruhoniya va doxiliya sho'basining tarkibini quyidagicha belgilash: 1 raislik qiluvchi – oxund, 3 diniy ulamo – viloyat a'lami, 1 oliv ma'lumotli musulmon – viloyat chiloni (a'zosi) va, agar lozim topilsa, mirzo (sarkotib).

7. Har bir viloyatda Turkiston Idorai ruhoniya va doxiliyasi, uning sho'balari va dorulqazo (qozixona) hukm va talablarini ijro etadigan ijroiya mahkamasini tuzish.

8. Mahkamaga ma'lumotli musulmonlardan saylov yo'li bilan rais etib tayinlash.

9. Turkistondagi musulmon volost yo'llar boshqaruvchilar, starshina va starshiy (katta) oqsoqollarini ijroiya mahkamaning amirligiga tobe deb hisoblash.

10. Bu idoralarning barchasi sho'bai ruhoniya va sho'bai hayotiyaga bo'linadilar. Behbudiy Turkiston Idorai ruhoniya va doxiliyaning rahbariyati va tarkibiy qismlariga keng to'xtabgina qolmay, uning faoliyat doirasini ham belgilab bergen. Umuman, "Loyiha"ning sharhlanayotgan bu birinchi qismida Idorai ruhoniya va doxiliya masalalari muallifning diqqat markazida turadi. Buning sababi shundaki, XX asr boshlarida Turkiston aholisi o'rtasida Islom dini katta mavqega ega bo'lib, uning ma'naviy va madaniy hayotiga, Behbudiy o'ylaganidek, yangi diniy tuzilma – Idorai ruhoniya va doxiliya orqali ta'sir ko'rsatish va aholining turmush tarzini shu tuzilma yordamida o'zgartirib borish mumkin edi. Shuning uchun ham mazkur "Loyiha"da Idorai ruhoniya va doxiliyaning faoliyat va mas'uliyat doirasini quyidagicha belgilangan:

4-bo'lim. Idorai ruhoniya va doxiliya a'zolarining xatti-harakati.

1. Shayxul-islom va oxund – ruhoniylar – shar'iy ishlar, a'lamlar – qonun-qoidalar va zamonning zarur ishlari, a'zolar esa turli-tuman ishlar bilan shug'ullanadilar. Muhim ishlarga viloyat a'lamlari va a'zolari ham chaqirilib, majlis o'tkaziladi. Hatto lozim bo'lganda Rossiyadagi Idorai ruhoniya va muxtoriyat doiralaridan maslahat olinadi.

2. Turkiston Idorai ruhoniya va doxiliyasi sho'balari Rossiya Musulmonlari ittifoqi qarorlariga rioya qiladi.

3. Majlis va idoralarning har bir ishi, hukm va qarori shariat qonun va qoidalari doirasida bo'ladi.

4. Turkiston Idorai ruhoniya va doxiliyasi tasarrufidagi shia mazhabiga mansub musulmonlarning rusumi mazhabiyaga oid fatvolari Zakavkaziyadagi shia shayxul-islomi majlisining roziligi bilan kuchga kiradi.

5. Mahalliy aholi jamiyatlari bu idoralarning ruhoniylar – hayotiy sho'balari to'g'risida ma'lumot olish, taftish qilish va hisob so'rashga haqlidir.

5-bo'lim. Idorai ruhoniya va doxiliya tasarrufindagi ishlar.

Bu bo'limda Idoraning faoliyat doirasini o'n ikki moddada belgilangan va ularning asosiyilari quyidagilardir:

1. Idora o'z sho'balariga rahbarlik qilish bilan birga ular o'rtasida aloqa o'rnatadi va barcha mahalliy idoralarning ishlarini tartibga soladi.

2. Mahalliy rus mahkamalariga savol bilan murojaat etadi, bu ma'lumotlarning xatti-harakatlariga norozilik bildiradi va tegishli xalq huquqini mahalliy hukumat oldida himoya qiladi.

3. Meros-tug'ilish, bola boqib olish va tarbiyalash, nikoh-taloq, bola saqlab olish, xullas, ro'zg'or va oila ishlari, turli xil ko'chma va ko'chmas mulk hamda nomus da'volari bilan shug'ullanadi.

4. Masjid, madrasa, maktab, vaqf va xayr-sahovat, vasiyat ishlari bilan shug'ullanuvchi mutavalli va nozirlar hamda diniy va dunyoviy tahsil dasturlari, shuningdek, maktab va madrasalar tuzilmasini tashkil etadi.

5. Turkiston qozilariga shar'iy, urfiy, tijoriy va zamoniy ishlarni so'ramoqlari uchun hamda jazo uchun dasturulamal va qonunnomalar tasnif etadi.

6. Barcha ruhoniy va milliy, doxiliy maktab xizmatlariga kiramagan shaxslarni imtihon qilib, ular saviyasining yetukligi va haqligi haqida shahodatnomaga beradi.

7. Yer va suv masalasini Turkistonning doxiliy maishat va ahvoli havoiya jug'rofiyasiga muvofiq suratda xolisona va qonun asosida hal etadi va h.k.

Ko'ramizki, Behbudiy talqinidagi Idorai ruhoniya va doxiliya Turkiston aholisi hayotining qariyb barcha muammolari bilan shug'ullanish va bu muammolarni shariat amallari asosida hal etish huquqiga ega. U hatto aholidan tushgan shikoyat va arizalar asosida mahalliy rus mahkamalariga murojaat etishi, ular xatti-harakatiga nisbatan norozilik bildirishi ham mumkinki, bu "Loyiha"ning qimmatini yanada oshirgan.

Nihoyat, Idorai ruhoniya va doxiliyaning javobgarligiga bag'ishlangan so'nggi 6-bo'lim quyidagi masalalarini o'z ichiga olgan:

1. Idorai ruhoniya va doxiliya sho'balari, ijroiya mahkamasining, a'lam va a'zolari hamda qozixona xodimlarining xiyonat va jinoyatlari Idorai ruhoniya va doxiliya mahkamasi tomonidan tekshiriladi.

2. Turkiston Idorai ruxoniya va dohiliyaning rais, a'lam va a'zolarining jinoyatlari taftish komissiyasi tomonidan o'rganiladi. Rossiyadagi barcha Idorai ruhoniya va muxtoriyatlarni tekshirish Umumrossiya musulmonlari raisi mahkamasining vazifasiga kiradi.

Turkiston Idorai ruhoniya va doxiliyasining tuzilmasi, a'zolarining xatti-harakati, tasarrufidagi ishlar va mas'uliyati Behbudiy tomonidan shunday mukammallik bilan ishlab chiqilganki, uning ham shariat qonun-qoidalari, ham zamonaqiy huquqiy bilimlarni puxta egallaganligi yaqqol ko'rinish turadi.

7-bo'lim. Turkiston qozilarini xususinda.

Behbudiy qozixonada ishlagani va bu sohani mukammal bilgani uchun Turkiston qozilarining huquqiy maqomi va qozilik tizimining huquqiy masalalarini o'n moddada ifodalagan va bu mliddalarning asosiyлари quyidagilardir:

1. Turkiston qozilarini hozirgi tartibda saylanishi, ammo ularning bu lavozimga loyiqliklari Idorai ruhoniya va doxiliya yoki sho'basining shahodatnomasi bilan tasdiqlanishi lozim. Ularni bo'shatish masalasi ham mazkur Idora ixtiyoridadir.

2. Turkiston muzofotidagi hukm chiqaradigan boshqa mansablar tugatilib, ular o'rniga shar'iy qozilar mansabi joriy etilsin.

3. Har bir voloshta bir qozixona, har bir qozixonada esa bir qozi va bir muovin mansabi belgilansin.

4. Qozi va muovinining vazifalari hozirgidek xalq tarafidan belgilanib, maoshi Idorai ruhoniya tomonidan berilsin.

5. Bir qozining hukmidan norozi bo'lgan kishi hozirgidek 4 qozidan iborat kengashga murojaat etsin.

6. Qozilar kengashining hukmi appelyatsiya uchun Idorai ruhoniyagacha ko‘tarilib, bekor qilinishi yoki rad etilishi mumkin.

7. Qozixonada yoziladigan barcha hujjatlar turkcha (o‘zbekcha) yozilib, da’vo va hujjat summasi cheklanmasligi lozim.

8. Turkiston qozilarini tomonidan tasdiqlangan barcha vasiqalar, hukm va xatlar Rossiyadagi adliya mahkamalari tomonidan e’tiborga olinishi maqsadga muvofiq va h.k.

“Loyiha”ning “Joniy va badkorlar” (“Jinoyatchi va bezorilar”) degan sakkizinchı hamda “Turkiston yahudiylari va ajnabiylari” degan to‘qqizinchı bo‘limlari ham mazkur masalalarga oid ishlarniadolatli hal qilishga qaratilgan moddalardan tashkil topgan. Masalan, agar turkistonliklar 3 marta o‘g‘irlik qilgan yoki umumga zarar keltirgan bo‘lsalar, ular Idorai ruhoniyaning xohishi bilan boshqa mahallaga vaqtincha yoki umrbod chiqarilib yuborilishi mumkin va h.k.

Behbudiy Idorai ruhoniya va doxiliya faoliyati bilan bog‘liq bu huquqiy qarashlari va takliflarini bayon etgach, hukumat idoralarining faoliyati bilan bog‘liq "talab va modda" lardan iborat "Loyiha"ning ikkinchi qismini ham Musulmon fraksiyasiga ma’ruza tarzida taqdim etgan. Bu qism quyidagi to‘rt bo‘limdan tashkil topgan:

1. Milliy mahkamalar xususinda.
2. Vaqflar xususinda.
3. Umumiy maktablar.
4. Suv va yerlar xususinda.

“Mulkiy mahkamalar xususinda” deb nomlangan birinchi bo‘limdagi Behbudiyning huquqiy qarashlari mazkur mahkama ishini tubdan qayta qurishga qaratilgani bilan, ayniqsa, ahamiyatlidir.

“Loyiha”dagi vaqf masalasiga bag‘ishlangan ikkinchi bo‘limning maqsad va mohiyati vaqf ishlarini butkul Idorai ruhoniya ixtiyoriga o‘tkazishga qaratilgan. Behbudiy, “Loyiha”ning boshqa bo‘limlaridan ham ma’lum bo‘lganidek, o‘lkadagi asosiy ishlarga rahbarlikni amalga oshirish uchun Idorai ruhoniya va doxiliyani tuzish hamda hukumat mahkamalari tasarrufidagi bir qator vazifalarni shu Idora ixtiyoriga o‘tkazish yo‘li bilan Turkistonning “madaniy muxtoriyati”ga erishmoqchi bo‘lgan.

Yuqoridagi moddalardan shu narsa ayon bo‘ladiki, Behbudiy bir tomonidan, Turkiston Rossiyaning tarkibiy qismiga kirgani holda bu yerda yashovchi musulmonlarning Rossiyadagi ijtimoiy imtiyozlardan foydalana olmayotganlarini ko‘zda tutib, mahalliy xalqning Rossiyadagi rus fuqarolari bilan teng huquqli bo‘lishi, ikkinchi tomonidan, Turkistondagi rus ma’muriyatining rahbarlik huquqlarini chegaralash. Turkistonning “madaniy muxtoriyat”iga erishish yo‘llarini axtargan. Behbudiyning bunday intilishlari “Loyiha”ning suv va yer haqidagi bo‘limida ham o‘z ifodasini topgan.

Behbudiy 1907-yil noyabr oyida yozilgan bu hujjati bilan Rossiya mustamlakachilik siyosatining Turkistondagi kishanlarini bo‘shashtirmoqchi bo‘lganki, biz bu hujjatda oradan o‘n yil o‘tgach, 1917-yilda amalga oshgan Turkiston Muxtoriyati g‘oyalarining dastlabki sadolarini ko‘ramiz. Behbudiyning bu “Loyiha”si bilan Turkistondagi mustamlaka davlat tuzumini isloh etmoqchi bo‘lgani shubhasiz. O‘lkadagi bir qator hayotiy masalalarning davlat tasarrufida Idorai ruhoniya va doxiliya ixtiyoriga o‘tkazilishi, shuningdek, maktab, suv va yer masalalari yuzasidan olg‘a surilgan takliflar Behbudiyning o‘z davridan kamida o‘n yilga ilg‘orlab ketganini ko‘rsatadi.

### Foydalilanigan adabiyotlar

1. Бехбудий М., 1999. Танланган асарлар / Тўпловчи, сўзбоши ва изоҳлар: Б.Қосимов. – Т.: Маънавият.
2. Boltaboev H., 1996. Qatag‘on qilingan ilm. – T.: Xazina.

3. Jadidchilik, 1999. Islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. Davriy to‘plam. №1. – T.: Universitet.
4. Mo‘minov I., 1960. O‘zbekiston ijtimoiy-falsafiy tafakkuri tarixidan. – T.
5. Reforem Movements and Revolutions in Turkistan. 1900-1924. Studies in Honour of Osman Khoja. - Haarlem, Netherlands, 2001.
6. Turkistonda yangilik harakatlari va ixtilollar. 1900-1924 (To‘plam). Haarlem (Gollandiya), 2001.
7. Qosimov B., 2002. Milliy uyg‘onish. – T.: Ma’naviyat.

## **АБДУРАУФ ФИТРАТ АСАРЛАРИДА ТАРИХИЙ ВА БАДИЙ ҲАҚИҚАТНИНГ ҚИЁСИЙ ТАҲЛИЛИ**

Минҳожиддин ҲОЖИМАТОВ Мирзажонович,  
филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)  
Ўзбекистон Ёзувчилари уюшмаси

### **Аннотация**

*Буюк жадид, серқирра истеъодод соҳиби Абдурауф Фитрат шахсияти ва ижодий фаолияти юксак салоҳиятли носир, файласуф шоир, жаҳоний ва қомусий олим, улкан тарихчи ва шарқшунос, тилишунос сифатида алоҳида аҳамият касб этади. Глобаллашаётган жамиятда одамлар орасидаги муносабатларни чўкур таҳлил қилиши, конфликтларни холис ёритишига эътибор кучаймоқда. Ҳар қандай миллий адабиёт руҳга, қалбга таъсир қилгувчи моҳиятдан, таъсирланувчи кучдан бино бўлади. Улуғ аждодлардан мерос маданий анъаналар, миллий ўзлик туйғуси қалбни уйготиши, унга янгича ҳаёт, маънавий камолот баҳи этиши қудратига эга. Мазкур мақолада Абдурауф Фитратнинг “Юрт қайғуси” сочмаси ва рус ёзувчиси Иван Буниннинг “Темурхон” ҳикоясида Соҳибқирон Амир Темур образининг бадиий талқини, фалсафий – маърифий, бадиий – эстетик тамойиллари қиёсий тадқиқ қилинди. Маълумки, Абдурауф Фитрат “Юрт қайғуси” номи билан уч сочма яратган. Улардан бири “Темур олдинда” деб номланган тағсарлавҳа билан “Хуррият” газетасида чоп этилган эди. Мазкур мақолада, асосан, мана шу сочманинг таҳлили берилган.*

**Калим сўзлар:** тарих, миллий руҳ, Темурхон, бадиий тафаккур, замон, жамият, инсон, ўзлик, эстетик идеал, эътиқод.

## **СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ИСТОРИЧЕСКОЙ И ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ПРАВДЫ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ АБДУРАУФА ФИТРАТА**

### **Аннотация**

*Личность и творческая деятельность Абдурауфа Фитрата, великого модерниста и большого таланта, имеют особое значение как высокопотенциального прозаика, философа, поэта, ученого мирового и универсального значения, крупного историка, востоковеда, лингвиста. В глобализирующемся обществе уделяется внимание глубокому анализу отношений между людьми, беспристрастному освещению конфликтов. Любая национальная литература строится из сущности, затрагивающей душу и душу. Культурные традиции, унаследованные от великих предков, чувство национальной идентичности, обладают силой пробудить душу, дать ей новую жизнь, духовную зрелость. В данной статье сравниваются художественная интерпретация, философско-просветительские, художественно-эстети-*

## MUNDARIJA

### I.U.MADJIDOV. ADABIY TA'LIM METODOLOGIYASI: XALQARO TAJRIBA VA ILMIY HAMKORLIK SAMARALAR (So'zbjshi o'rniда) ..... 3

#### 3-шўъба. ЖАДИДЧИЛИК ТАРИХИ ВА ЖАДИД АДАБИЁТИ

Temur Xo'ja O'g'li. GERMANYADA TURKISTON ADABIYOTI: 1923-1944.....	7
Камолиддин ШАМСИДДИН. КУЛЬТУРНАЯ И ПОЛИТИЧЕСКАЯ ПРОГРАММА ДЖАДИДОВ ТУРКЕСТАНА .....	13
Ahat A.ANDICAN. SOVYETLER BİRLİĞİ'NİN DAĞILMA DÖNEMİNDE TÜRKİYE'DEKİ TÜRKİSTAN DİASPORASININ FAALİYETLERİ.....	20
Саидхорр ФУЛОМОВ. ЖАДИДЛАРНИНГ ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ ҚАРАШЛАРИ ВА ИҚТИСОДИЁТНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ ЎРНИ.....	31
Seyfettin ERŞAHİN. ÖZBEK CEDİDCİLERİN AHLÂK EĞİTİMİNE DAİR METİNLERİNİN MUHTEVA TAHLİLİ: A. AVLANI'NİN TÜRKÎ GULİSTAN YAHUD AHLÂK ÖRNEĞİ .....	40
Yashar QOSİM. İSTİQLOL KUYCHILARI: AHMAD COVOD VA ABDULHAMİD CHO'L PAN POEZİYASI QİYOSİY-TİPOLOGİK TAHİL KONTEKSTİDA.....	63
Filiz MELTEM. ABDULLA AVLANI'NİN TÜRKÎ GÜLİSTÂN YÂHÛD AHLÂK ADLI ESERİNDEKİ İYİ HUYLAR İLE İLGİLİ ŞİİRLERİ VE BU ŞİİRLERİN İÇERİK VE DİL BAKIMINDAN İNCELENMESİ .....	73
Münevver TEKCAN. EDUCATIONAL REFORM ACTIVITIES IN TURKESTAN-UZBEK JADIDISM .....	83
Muqaddas TOJIBOYEVA. MO'MINJON TOSHQIN ASARLARIDA MA'RIFIYMASALALAR VA ULARNING BADİY TALQINI .....	91
Абдулла УЛУФОВ ЗАМОНДОШЛАРИ ОРАСИДА ТЕНГСИЗ.....	97
Kemal ATAMAN. TÜRKİSTAN CEDİT HAREKETİNİN GLOBAL ANALİZİ.....	105
Rustam SHARIPOV. МАҲМУДХО'JA ВЕҲБУДИYNING SIYOSIY-HUQUQIY QARASHLARIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR ("TURKİSTON MADANIY MUXTORIYATI LOYIHASI" MISOLIDA) .....	110
Минҳожиддин ҲОЖИМАТОВЮ АБДУРАУФ ФИТРАТ АСАРЛАРИДА ТАРИХИЙ ВА БАДИЙ ҲАҚИҚАТНИНГ ҚИЁСИЙ ТАҲЛИЛИ.....	118
Қидир ТЎРАЛИ. XX АСРНИНГ БОШЛАРИДА «УЙГОНИШ» ШИОРИ ОСТИДА НАШР ЭТИЛГАН УЧ КИТОБНИНГ ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ .....	124
Aida BABUTCU. CƏDİTÇİ VƏDUD MAHMUDUN "FÜZULİ BAĞDADİ" MƏQALƏSİ HAQQINDA.....	131
Xamidulla TADJIYEV. QOZOQ ADABIYOTIDA MA'RIFIY G'OYALARING YANGILANISHI (XIX ASR OXIRI VA XX ASR BOSHLARI).....	133
Sherali QO'LDASHEV. SHARQIY TURKISTONDA JADIDCHILIK G'OYALARINI TARQALISHIDA O'ZBEK ZIYOLILARINING ISHTIROKI .....	139
Раҳматулла БАРАКАЕВ. АБДУЛЛА АВЛОНӢ АСАРЛАРИДА ОҲА-ВАТАН МАВЗУИ.....	144
Xurshida JALILOVA. MA'RIFATCHILIK ADABIYOTIDA SAYOHATNOMA JANRINING POETIKASI (INGLIZ VA O'ZBEK MA'RIFATCHILIGI ADABIYOTI ASOSIDA).....	150

Shahlo HOJIYEVA. CHO'LTON IJODIGA TURK ADABIYOTI TA'SIRI .....	157
Гулбахар ТОҚИМБЕТОВА. XIX АСР ОХИРИ XX АСР БОШИДАГИ ҚОРАҚАЛПОҚ АДАБИЁТИДА ЛИРИК ЖАНРЛАР .....	163
Manzura JO'RAYEVA. CHO'LTON IJODIDA SAFARNOMA JANRINING KO'RINISHLARI .....	169
Ulug'murod AMONOV. ABDURAUF FITRAT XALQ QO'SHIQLARI HAQIDA .....	176
Hulkaroy BOLTABOYEVA. ERSO'Y VA FITRAT ASARLARIDA MA'RIFATGA NAJOT YO'LI SIFATIDA QARALISHI .....	181
Abduvali YO'LDASHEV. MUNAVVARQORI ABDURASHIDXONOV VA TURKISTON YOSHLARI.....	190
Uktamjon ORTIKOV. THE RELEVANCE OF JADIDISM ON UZBEKISTAN TODAY....	195
Нургуль САЙЛАУБАЕВА. ПРЕДСТАВИТЕЛЬСТВО НАСЕЛЕНИЯ СТЕПНОГО КРАЯ В ГОСУДАРСТВЕННОЙ ДУМЕ РОССИИ В НАЧАЛЕ ХХ ВЕКА.....	201
Shamsiyo BOLTABOYEVA. O'ZBYEK JADID MATBUOTIDA "HURRIYAT" GAZETASINING KONTENT XUSUSIYATLARI .....	208
Sitora SHIRINOVA ISMOILBEK GASPRALINING NASRIY ASARLARIDA AYOLLAR OBRAZI.....	219
Sabogul SUYUNOVA. MUNAVVAR QORI VA FITRATNING O'ZBEK TILINING MORFOLOGIYASIQA OID QARASHLARI .....	223
Sevinchoy YOQUBOVA. O'ZBEK JADID SHE'RIYATIDA POETIK OBRAZLARNING IJTIMOIY-ESTETIK VAZIFALARI .....	229
Gulbahor BEKTASHEVA. BEGALI QOSIMOV TADQIQOTLARIDA VAQTLI MATBUOT VA ADABIY JARAYON MUNOSABATLARI .....	235

#### **4-шўба. BADIY MATN TAHLILI VA TALQINI**

Bədirxan ƏHMADLI. SİRACƏDDİN SƏYYİDİN POETİK DÜNYASI.....	241
Salidə ŞƏRİFOVA. ÇAĞDAŞ TÜRK ŞEİRİNİN NÜMAYƏNDƏSİ – BÜLƏND ECEVİTİN BƏDİİ YARADICILIĞINA BİR NƏZƏR .....	247
Қозоқбай Йўлдош. ЎЗГАЛАР ОҲАНГИДАГИ ЎЗЛИК МОҲИЯТИ .....	260
Islamjon YAKUBOV. "OTAMDAN QOLGAN DALALAR" ROMANIDA KINOYAVIY-SATIRIK IFODA USLUBI.....	268
Mənzər NİYARLI. SALİDƏ ŞƏMMƏDQIZİNİN (ŞƏRİFOVA) KİÇİK NƏSRİNDƏ BƏDİİ REFLEKSİYA .....	276
Улугбек ҲАМДАМОВ. ЗАМОНАВИЙ ЎЗБЕК АДАБИЁТИГА УМУМИЙ БИР НАЗАР .....	289
Ravshanbek MAHMUDOV. TO'RA SULAYMON IJODINING INSON KAMOLOTIDAGI AHAMIYATI.....	296
Bahor TO'RAYEVA. ULUG'BEK HAMDAM VA NORMUROD NORQOBILOV ROMANLARIDA BADIY MAKONNING POETIK IFODASI .....	306
Tozagul MATYOQUBOVA. G'AFUR G'ULOM SHE'RIYATIDA LIRIK QAHRAMON RUHIY KECHINMALARI TASVIRI.....	312
Hənifə SƏLİFOVA. ŞƏRİF AĞAYARIN HEKAYƏLƏRİNDE BƏDİİ VASİTƏLƏRİN ESTETİK RƏNGARƏNLİYİ .....	318
Dilfuzə TAJIBAEVA. XX ASRNING OXIRI O'ZBEK SHE'RIYATIDA RANG TASVIRI IFODASI .....	324

Salima JUMAYEVA. IKROM OTAMUROD DOSTONLARIDAGI POETIK ASOSNING HAYOTIY VA FALSAFIY TALQINLARI .....	332
Şahnaz SƏFİBƏYLİ. ZÜLFİYYƏ POEZİYASINDA AZƏRBAYCAN MÖVZUSU .....	340
Nadira MATMUSAYEVA. SHODAT ISAXONOVA İJODIDA AYOL RUHIY OLAMINING TASVIRI .....	343
Нилуфархон ЮЛДАШЕВА. АВТОРСКОЕ «Я» В РАССКАЗЕ «ИСТОРИЯ С ВАРИАЦИЯМИ» ИЛЬДАРА АБУЗЯРОВА .....	349
Nodira XOLIKOVA. CHO'L PONNING “O'ZBEK QIZI” OBRAZIDA TURKISTON FOJEIY QIYOFASI TASVIRI .....	356
Guljahan SEITNAZAROVA. OCHERKNAVIS MAHORATI: OChERKDA JANR, MAVZU, G'OYA VA OBRAZ YAXLIDLIGI.....	363
Odil YOQUBOV. OYBEK SHE'RIYATIDA LIRIK QAHRAMON RUHIY KECHINMALARI TASVIRI.....	368
 <b>5-sho'ba. ADABIY ASARNING LISONIY VA USLUBIY TAHLLILI</b>	
Yusuf AVCI, Fatih KANA, Arda KÖROĞLU. TÜRK DÜNYASINDA DİL BİLGİSİ ÖĞRETİMİ: TÜRKİYE VE ÖZBEKİSTANDAKİ ANA DİLİ DERS KİTAPLARININ İÇERİK BAKIMINDAN KARŞILAŞTIRMASI .....	374
Selahiddin TO'LQIN. GENEL TÜRKÇEDE İSIM ÇEKİM EKLERİNİN KULLANIMINDA GÖRÜLEN İSTISNAI DURUMLAR .....	376
Xolida ALIMOVA. MIRZO MEHDIXONNING “MABONIU-L-LUG‘AT” ASARIDA MORFEMALAR TAHLLILI .....	382
Махмуд РАВШАНОВ. АНТРОМОРФНОСТЬ МЕТАФОРЫ ЯЗЫКОВОЙ КАРТИНЫ МИРА .....	390
Gulchehra KELDIYOROVA. ALLYUZIYA MATN EKSPRESSIVLIGINI YARATUVCHI VOSITA SIFATIDA .....	395
Alisher UBAYDULLAYEV. BARQAROR BIRIKMALARNING BADIY MATNDAGI O'RNI .....	402
Nafisa YUSUPOVA. FORS TILIDAGI GAPIRUV-IFODALOV FE'LLARINING LEKSİK- SEMANTIK TAHLLILI.....	409
Mirzəli MƏLEYKƏ. XƏZƏR XAQANLIĞI VƏ XƏZƏR DİLİ .....	417
F.FAIZOVA. ISM MADANIYATI BELGI ELEMENTI SOFATIDA.....	425
Kumushoy QURBANOVA. XIVALIK JADID MULLA BEKJON RAHMON İJODIDA TIL VA IMLO MASALALARI .....	431
Ozoda SHARIPOVA. “VATAN” KONSEPTİ KOMPONENTLİ PAREMALarda BIONIMİK KO'CHIM VA O'XSHATISHLAR SEMANTİKASI.....	436
Mahliyo XOLMO'MINOVA. VATAN KONSEPTINING REALIYALAR BILAN BOG'LQLIGI.....	441
Shahnoza NAZAROVA. JAHON TILSHUNOSLIGIDA NUTQIY ETIKET ("POLİTENESS")NING İLMİY-NAZARIY ASOSLARI VA TAMOYILLARI .....	446
Наргизахон ВАЛИЕВА. ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПРОЗЫ ХАЛЛЕДА ХОССЕЙНИ (НА МАТЕРИАЛЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ «БЕГУЩИЙ ЗА ВЕТРОМ»).....	452
Гулнара АҚЫЛБЕКОВА. ЛИНГВОМАДАНИЯТТАГЫ ОБЪЕКТИВДЕШТИРИЛГЕН «ТАБУ» КОНЦЕПТИ.....	458

Nigora BAFOYEVA. ABDULLA QODIRIYNING “O’TKAN KUNLAR” ROMANIDA MAVJUD TAXALLUSLAR VA ULARNING SEMANTIK-USLUBIY XUSUSIYATLARI.....	464	
<b>6-sho‘ba. OLIY TA’LIM TIZIMIDA FILOLOGIK FANLARNI O‘QITISH MASALALARI / XORIJIY TAJRIBA VA HAMKORLIK</b>		
Almaz ÜLVİ BİNNATOVA. AZƏRBAYCAN ELMİNİN DOSTLARI:		
PROFESSOR HƏMİDULLA BOLTABAYEV .....	470	
Qunduzxon HUSANBOYEVA. ADABIY TA’LIM SAMARADORLIGINI TA’MINLASHDA SAVOL VA TOPSHIRIQLARNING AHAMIYATI .....	478	
Maxliyo UMAROVA. ӮARB VA SHARQ DRAMATURGIYASI		
XX ASR BOSHLARIDA .....	484	
Исомиддин ЁРМАТОВ. ТАЛАБАЛАР ОНГИГА МТТ ТАРБИЯЛАНУВЧИЛАРИ НУТҚИНИ ШАКЛАНТИРИШ ВА ЎСТИРИШ КЎНИКМАЛАРИНИ СИНГДИРИШ МУАММОЛАРИ .....		490
Дилдорахон АБДУЛЛАЕВА. ЧЎЛПОН ГОГОЛ ТАРЖИМОНИ .....	496	
Eshnazar JABBOROV. SHARQ MA’RIFIY ADABIYOTINING MOHIYATI .....	505	
Amonkeldi AXMATOV. BUXORO VA OZARBAYJON ADABIY ALOQALARI TARIXIDAN .....		510
Surayyo DO’STOVA. “ЭСКИ ЎЗБЕК ЁЗУВИ”ДА ҶҶҲҶ (JIM, CHIM, HOYI HUTTIY, XE) HARFLARINI O’RGATISHDA ZAMONAVIY TA’LIM TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH .....	515	
Aisafar MURTAZAYEVA. KASBGA OID TERMINLARNI O’RGANISHDA TIZIMLI YONDASHUVNING AHAMIYATI .....	520	
Gulchiroy MUHIDDINOVA. YOZMA NUTQNI RIVOJLANTIRISH METODLARI .....	523	
Zulayho NEGMATOVA. IJODIY TASAVVURNI SHAKLLANTIRISHDA SINFDAN TASHQARI O’QISHNING TARBIYAVIY IMKONIYATLARI .....	527	
Ганжина ЮНУСОВА. ЗАМОНАВИЙ АМЕРИКА РОМАНЛАРИДА ЙЎЛ ХРОНОТОПИННИНГ БАДИЙ-ЭСТЕТИК ФУНКЦИЯСИ .....	531	
Jupargul KANIYAZOVA. SEYTOVTÍN «QASHQÍN» HÁM SH.AYTMATOVTÍN «DÁSLEPKI MUĞALLIM» POVESTLERINDE OBRAZLAR TIPOLOGIYASÍ .....	535	
Ayjamal MATENOVA. INGLIZ, RUS VA O’ZBEK TILLARIDA LAKUNALAR XOLID HUSSEINI ASARLARIDA.....	543	
Markhabo IBROKHIMOVA. INTEGRATING PHILOLOGICAL STUDIES INTO THE HIGH SCHOOL CURRICULUM .....	547	
Nilufar MUXAMMEDOVA. LOTIN AMERIKA ADABIYOTDA MO’JIZAVIY REALISM TALQINI.....	552	
Iqbola QODIRJONOVA. JAHON VA AMERIKA ADABIYOTIDA YETIM BOLA OBRAZINING TADRIJIY TAKOMILI.....	556	
Dinora YUSUPOVA. SHARQ XALQLARI FOLKLORI HAMDA SIYOVUSH KASROIY SHE’RIYATIDA “TOG” OBRAZINING QIYOSIY-TIPOLOGIK TADQIQI.....	560	
Rayxon NAZAROVA. TARIX VA MIF: XILARI MANTEL ROMANLARIDA O’TMIŞH TASVIRI .....	566	

